

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI

Salixova Zulfizar Muzaffar qiz

Nizomiy nomidagi TDPU

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasining magistranti

Innovatsion motivlar pedagogning bilimlar tizimini boyitish, kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni tizimli amalga oshirish orqali o'z faoliyatini takomillashtirish ehtiyojida namoyon bo'ladi. Innovatsion malakalarga gnostik malakalar, pedagogik loyixalash malakalari, axborot malakalari kiradi. Innovatsion bilimlarga quyidagilar kiradi: pedagogik innovatika sohasida tushunchalarni izoxlovchi atamalarni egallash; zamonaviy pedagogika fani va ilgor pedagogik tajriba yutuqlari haqida ma'lumotga ega bo'lish; ta'limda pedagogik innovatsiya moxiyati va innovatsion jarayonlari, ularning kechishi konuniyatlarini tushunish, bu jarayonlarni boshkarish zaruriyatini anglash; pedagog innovatsion faoliyati metodologik asoslari va tuzilmasi xakida; psixologik-pedagogik tadkikot metodlari va mazmuni va maktabgacha ta'lim tashkilot shart-sharoitida tajriba-eksperimental tashkili xakida; pedagogik faoliyatda axborotni olish va ishlatish usullari xakida; innovatsion malakalaga gnostik malakalar, pedagogik loyixalashtirish malakalari, axborot malakalari kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion madaniyatining barcha tuzilmaviy tarkibiy kislmlari ko'pgina tarbiyachilarda yetarli darajada berilmaganligi kuyidagilarda asoslanad:

- kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalardan foydalanishga yetarli bulmagan motivatsiya;
- tushunchalarni izoxlovchi atamalarning egallanishi kuyi darajasi;
- pedagogik innovatsiyalar moxiyati, innovatsion faoliyat tuzilmasi va psixologik-pedagogik tadkikotning nazariy asoslarini yaxlit tushunishning mavjud emasligi;

-gnostik va kommunikativ malakalar, pedagogik loyixalashtirish malakalari shakllanganligining yetarli bulmagan darajasi. Tarbiyachilarda innovatsion madaniyatni shakllantirishga nisbatan bir qator asoslar shunda ifodalanadiki, innovatsiyalarning kullanilishi kasbiy amaliyotning asosiy kismi xisoblanadi. Pedagoglarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishga kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash tajribasiga ega bo'lishlari zarur. Innovatsion madaniyatni shakllantirish jarayonini ta'minlash uchun shakllantiruvchi kulam modeli ishlab chikilgan. Ko'pgina tadqiqotlarda shakllantiruvchi kulam deganda ko'pgina ob'ektlar tushuniladi, ularning o'rtasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida barcha innovatsion madaniyat tarkibiy qismlarini shakllantirish maqsadida munosabatlar o'rnatilgan. Shakllantiruvchi ko'lam tortta darajasidan har biri (maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion muxiti, nazariy-metodologik tayyorgarlik, nazariy- amaliy tayyorgarlik, innovatsion amaliy tayyorgarlik) boshka darajalar bilan mazmuniy va operatsional o'zaro bogliklikda bulgan. Darajalardan xar birida pedagoglarda barcha innovatsion madaniyatning bosqichma-bosqich shakllanishini ta'minlovchi tadbirlar yigindisini qo'llash orqali bir qator o'ziga xos masalalar hal etildi. Shakllantiruvchi ko'lam doirasida o'tkazilgan o'qitish innovatsion motivlar, bilimlar va malakalarni shakllantirish va faollashtirish orqali pedagoglarning kasbiy amaliyoti motivatsion, intellektual va faoliyatli soxalarini rivojlantirishga karatilgan edi. Faol ukitish metodlaridan foydalanish orkali pedagoglarning fikrlash va xulk-atvor faolligini ta'minlovchi innovatsion madaniyatni shakllantirish ishlab chikilgan texnologiyalari orkali ukitish amalga oshirildi. (ma'ruzalar, muzokaralar, ish uyinlari, tatsdimotlar, ijodiy pedagogik vazifalarni ual etish va b).

Ishlab chikilgan texnologiyalar tarbiyachini o'kitish jarayonini turtta izchil boskichlar ko'rinishida berishga imkon beradi.

Tezkor o'zgaruvchan mehnat bozorining shart-sharoitlari mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va uning mazmuniga bo'lgan talablariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Hozirgi davrda kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida bilim, ma'lumotlilik darajasi yoki tajribagina emas, balki

ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllangan mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kompetentligi belgilanmoqda. Shu jumladan, barcha sohalarda bo‘lgani kabi pedagogikadagi zamonaviy yondashuvlar mazmunida ham o‘qituvchining yangi kompetensiyalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi, “o‘z paradigmasini o‘zgartirishi”, metakognitiv va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu o‘zgarishlarni amalga oshirish esa o‘z navbatida pedagog kadrlardan yuqori kasbiy tayyorgarlik va kompetentlikka ega bo‘lishni talab etmoqda. Darhaqiqat, pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta‘minlovchi yangi ta‘limiy strategiyalarni belgilash, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali yo‘llari, shakllarini amaliyotga keng joriy etish hamda kompetentlikning miqdoriy va sifat darajasini tahlil qilish, baholashga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni ishlab chiqishga e‘tibor qaratish ta‘lim sifatini oshirish uchun xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta‘lim amaliyotida keng qo‘llanila boshlangan assessment markazlari oliy ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini baholashning innovatsion metodlaridan biri sifatida baholanmoqda. Assessment markazlari – (assessment centre – mutaxassislarni baholash markazlari) bu diagnostik metodlar majmuyi bo‘lib, guruhviy baholashning samarali shakli sifatida keys, reproduktiv testlar, taqdimot, intervyu, suhbat, ijodiy topshiriqlar asosida mutaxassislarning aniq bir kasbiy faoliyat doirasidagi yutuqlari va kamchiliklarini tizimli o‘rganish va tahlil etish, ularning mazkur faoliyat sohasidagi kompetentlik darajasini baholashga yo‘naltiriladi.

Adabiyotlar:

1. Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika -T.: 2018y.
2. Nishonov S. «Komil inson tarbiyasi». T: «Sharq» 2003 y.
3. Babayeva D. R., Jumasheva G. X. Maktabgacha ta‘limni boshqarishning ilmiy asoslari.-T.: 2021yil